

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

 <https://timeedu.uz/>

 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO'BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.	23
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	
Алибеков Ш.И.	33
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А.	37
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	
Asamxodjayeva S.Sh.	48
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	56
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	
Киясов Б.Н.	60
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ	
Ўқбар Айдын	66
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Rashidov J.X.	72
"QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH"	
Alimov O.S.	82
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TANHILI	
Nazirova S.X.	89
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
Ахмедова Г.А.	99
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С.	107
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ	
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л.	113
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	
Набоков В.И., Некрасов К.В.	121
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	
Рискулов Р.Б.	125
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	
Sa'dulloyev H.I.	134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI VA “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI	
Sharipova Sh.B.	140
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
Sharipov I.B.	147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	
Ашуров А.Ф.	155
II SHO’BA. “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	164
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO‘LLARI	
Yuldashev I.B.	164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А.	168
SUN’IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO‘LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	
Norinov M.U., Zikrayev A.A.	177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN’IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI	
Ergashev O.M.	186
ИКЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	
Вахобов А.Р.	195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.	
Йўлдошев Н.Қ.	202
SUN’IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J.	209
O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR	
Isayev K.A., Qurbanov A.G‘.	215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Худайбердиев Ў.Э.	221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	
Kambarova Sh.M.	228
BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	
Maxmasobirova N.U.	235
“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MECHANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”	
Rusatamov Z.X.	241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE	
Sadikova M.A.	249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI	
Daminova O.M.	254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д.	262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	
Yakubova U.A.	278

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги кооперативлари тўғрисида”ги Қонуни 2024 йил 8 ноябрь. LEX.uz
4. Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро марказида олиб борилган лойиҳалар ҳисоботлари.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH

Kambarova Shaxnozaxon Mirvoxitovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası

katta o‘qituvchisi (PhD)

E-mail: kambarovashaxnozaxon6@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2819-9842

Anotatsiya. Raqamli transformatsiya jarayonida biznes faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqarish masalasi yoritilgan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning biznesda ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari o‘rganilgan. Hozirgi kunda raqamli transformatsiyani rivojlantirish va o‘rganilgan kamchiliklarni bartaraf etish muammolari taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, kichik biznes, texnologiya, raqobatbardoshlik, innovatsiya, raqamlashtirish, brend imidj, sun‘iy intellekt, savdo, marketing, samaradorlik, raqamli infratizim.

Аннотация. Рассматривается вопрос организации и управления деятельностью предприятий в процессе цифровой трансформации. При этом исследуются значение, преимущества и недостатки цифровой трансформации в бизнесе. Анализируются проблемы развития цифровой трансформации на современном этапе и устранения выявленных недостатков.

Ключевые слова: цифровая трансформация, малый бизнес, технологии, конкурентоспособность, инновации, цифровизация, имидж бренда, искусственный интеллект, продажи, маркетинг, эффективность, цифровая инфраструктура.

Abstract. The issue of establishing and managing business activities in the process of digital transformation is covered. At the same time, the importance, advantages and disadvantages of digital transformation in business are studied. The problems of developing digital transformation today and eliminating the shortcomings studied are analyzed.

Keywords: digital transformation, small business, technology, competitiveness, innovation, digitization, brand image, artificial intelligence, sales, marketing, efficiency, digital infrastructure.

Kirish

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash sharoitida raqamli transformatsiyaning roli kattadir. Ayniqsa, hozirgi kunda bu tizim kichik biznes sohalarida ko‘proq

rivojlanmoqda. Kichik biznesda raqamli transformatsiyalash orqali mijozlarga xizmat ko'rsatishda, texnologiyalarni qo'llashda, umumiy samaradorlikni oshirishda va mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta'minlashda bu faoliyatning o'rni kattadir. Shu munosabat bilan ushbu tizimga alohida e'tibor qaratilishi, kichik korxonalarda maqsadli foydalanilishi va mahsulot xamda xizmatlarni optimallashtirish, mijozlar bilan ishlashni yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozorlarga kirish mumkin. Raqamli transformatsiya nafaqat biznes jarayonlarini tezlashtiradi, balki kichik bizneslarning global miqyosda o'sishi va yangi imkoniyatlarni o'zlashtirishiga ko'mak beradi.

Raqamli transformatsiya jarayonida kichik biznesda bir qator afzalliklarni qo'lga kiritish mumkin. OECD hisobotiga ko'ra, raqamli texnologiyalar yordamida kichik va o'rta biznes subyektlari xarajatlarini 20-30 %ga kamaytirishi va marketing hamda mijozlar bilan ishlash jarayonlarini 25 %ga samaraliroq qilishlari mumkin. Bu kichik bizneslar uchun raqobat afzalligini oshirish va bozorga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, raqamli xizmatlar orqali kichik bizneslar o'z mijozlariga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatib, mijoz sodiqligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar⁶⁴.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsad qilib qo'yilgan⁶⁵. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi farmonida belgilanganidek, "raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda «yo'l xarita» lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish", masalalari ko'rildi⁶⁶.

⁶⁴ Sobirjonov S.S. G'ulomova I. Raqamli transformatsiyava tadbirkorlik: kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnal, 2024 y. 11 son. 167 b. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 sonli farmoni <https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf>

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kichik biznesda raqamli transformatsiya – bu texnologiyalar va raqamli vositalarni ish jarayonlariga, ishlab chiqarishga, savdo va marketing faoliyatiga kiritish jarayonidir. Kichik va oʻrta bizneslar uchun raqamli transformatsiya muhimdir. Ularning raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni ta'minlash va yangi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini yaratish uchun zarurdir. Kichik va oʻrta biznes sohasi uchun raqamli transformatsiyaning muhimligi: Raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Oʻzbekistonda keyingi yillarda raqamli transformatsiyaga katta ahamiyat berilmoqda va ushbu yoʻnalish aktual yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev farmonlari asosida, Oʻzbekiston Respublikasida “Biznes va iqtisodiyotda” raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkazildi. Ushbu konferensiyada chop etilgan maqolalar toʻplamida biznesni boshqarishni samaradorligini oshirish asosida raqamlashtirish poydevori yaratildi va samaradorlikni oshirish yoʻnalishlari koʻrib chiqildi. Ular ichida Suvanova D.D. doktorant tomonidan ushbu jarayon juda aniq koʻrsatib berilgan; Muzrabov A.A. oʻz ilmiy izlanishlarida “Kichik va oʻrta biznesda raqamli transformatsiyasini jadallashtirish masalasi,” Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilm-fan xabarnomasida chop etilgan⁶⁷.

Bundan tashqari, ushbu sohani rivojlantirishga rossiyalik va chet el olimlari oʻz xissalarini qoʻshgan. Rossiyalik olimlardan Nikolayev Yu.N. tomonidan, “Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства” maqolasida⁶⁸, Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия⁶⁹. Oʻzbekiston olimlaridan S.S. Gʻulomov, R.X. Ergashev, S.N. Xamrayeva tomonidan “Raqamli iqtisodiyot” (oʻquv qoʻllanma) T-2020 yilda chop etilgan⁷⁰. Shuningdek, Mirsoatov A., Xudoynazarov F.X., Kamalov Sh.K. yosh olimlar tomonidan aniq kichik va oʻrta biznes soxalarida raqamli iqtisodiyot, ularning 2023 – 2025 yillar ichida chop etilgan maqolalarida koʻrishimiz mumkin⁷¹. Bular xammasi raqamli iqtisodiyotimizni respublikada rivojlanish darajasi oʻsib borayotganining natijasidir.

⁶⁷ Muzrabov A.A. Kichik va oʻrta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. Oʻzbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi. Ilm-fan xabarnomasi <https://inlibrary.uz/index.php/afx/article/view/69501>

⁶⁸ Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. https://progressive-economy.ru/wp-content/uploads/2023/08/elibrary_50365406_69099252.pdf

⁶⁹ Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия <https://1economic.ru/lib/122173>

⁷⁰ Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.X. Raqamli iqtisodiyot - (oʻquv qoʻllanma),- T.: 2020. -377 b.

⁷¹ Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yoʻnalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar» jurnali 3/2022

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy xuquqiy xujjatlar, mantiqiy fikrlash, tizimli taxlil, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy taxlili, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy statistik ma'lumotlar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Taxlil va natijalar

Biznesning raqamli transformatsiyasi yangi texnologiyalarni qo'llash orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Bir oz oldin biznes sohasiga ijtimoiy tarmoqlarning joriy etilishini inqilob deb atash mumkin edi. Bugun esa Yangi O'zbekistonni mustaqil, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar qatorida o'z o'rnini topishi bu yetarli emas bo'lib qoldi. Kompaniyalar takomillashtirish va rivojlanish uchun zamonaviy texnologiyalarga muhtoj. Biznesni yuritishning an'anaviy strategiyalaridan raqamli biznes strategiyalariga inqilobiy o'tish tufayli kompaniya raqobatchilarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega bo'ladi. Biroq qat'iy harakat qilish zarur. Yangi jarayonlarning ba'zilari tez va samarali ishga tushiriladi, boshqalari esa uzoq muddatli o'zgarishlarga olib kelishi va hatto qisqa masofalarda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, ba'zi mijozlar innovatsiyalarni qabul qilishni istamasliklari sababli rad etishadi. Biroq raqamli transformatsiyaga to'g'ri yondashish va samarali vositalarni joriy etish kompaniyani «raqamlashtirish» va uning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Respublikamizda raqamli texnologiyalar xar bir sohada rivojlanib kelmoqda.

Bu shunchaki ma'lumotni raqamlashtirish emas. Bu kompaniyani raqamli makonda targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarning katta to'plamidir. Siz turli tajribalarga tayyor bo'lishingiz, eskirgan biznes jarayonlaridan voz kechishingiz va biznesingizni kengaytirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishingiz kerak.


Raqamli transformatsiya juda katta sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bir necha o'n yillar oldin biznesni faqat mahalliy darajada targ'ib qilish mumkin edi. Gazetalardagi mahalliy e'lonlar, ustunlardagi e'lonlar va tashrif qog'ozlarini tarqatish kabi. Keyin veb-saytlar paydo bo'ldi va kompaniyalar asta-sekin, bir vaqtning o'zida televideniye orqali reklama berish bilan birga raqamli makonga kira boshladilar. Bugungi kunda raqamli transformatsiya yangi to'lqinni boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt faol rivojlanmoqda, internet tarmoqlari rivojlanganligi sababli, raqamli transformatsiya rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratish va mashinani o'rganish amalga oshirilmoqda⁷².

Raqamli transformatsiya – bu zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun xodimlarning qanday ishlashini qayta ko'rib chiqishdir.

⁷² Shohruh Raxmat. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? <https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformatsiya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam>

Raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak, u quyidagilardan iborat, ya’ni biznesning o‘sishi, daromadning ko‘payishi, yaxshilangan brend imidji va yangi imkoniyatlarning ochilishi bo‘lsa, shu o‘rinda uning salbiy tomonlarini xam hisobga olishimiz lozim. **Birinchidan**, raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun ko‘pincha katta sarmoya talab qilinadi. **Ikkinchidan**, xodimlarning raqamli texnologiyalarini o‘zlashtirishi uchun qo‘shimcha o‘qishlar va zamonaviy ko‘nikmalarni mavjud emasligini aytib o‘tish lozim. **Uchinchidan**, raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muammosi ham yuzaga kelishi mumkin.

Bir necha kichik va o‘rta kompaniyalar vakillarining so‘roviga asoslangan tahliliy hisobotdan olingan tadqiqotlar natijasida kichik hisob-kitoblar amalga oshirildi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya ularning biznesi uchun nimani anglatishi so‘rab o‘tildi.



1-rasm. Kichik biznes sohasida raqamli transformatsiya ulushi⁷³

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, Biznes-jarayonlarni raqamlashtirish ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lib, unda asosan bir xil resurslar bilan tezroq va ko‘proq ishlarni bajarish lozimligi ko‘rsatildi. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv ko‘rsatkichlari xam yaxshi natija berib, bunda aniq raqamlarni va hisobotlarni bilish va foydasizlarni tezda olib tashlash lozimligi aniqlandi. Barcha bosqichlarda mijoz bilan ishlashni takomillashtirish uchun ham eng muhim masala asosan mijozlar bilan bo‘ladigan muloqotlarda muomala madaniyatiga e’tibor berish, ular bilan bo‘ladigan barcha xatolarni tuzatish va savdo aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratilishi zarur. Eng so‘nggi ko‘rsatkich raqamli infratuzilma bo‘lib, kichik korxonalarda zamonaviy va arzon vositalardan foydalanish kerakligi belgilandi.

⁷³ Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar <https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/>

Shu o'rinda aytish lozimki, ba'zi korxonalarda raqamli transformatsiyaning amalga oshmaganligiga guvoh bo'lamiz. Bu xam bir qancha sabablarni o'z ichiga oladi. Quyidagi 1-jadvalda buning sabablari ko'rsatilgan.

1-jadval

№	Raqamli transformatsiyaning amalga oshmaslik sabablari.	Ko'rsatkich (%)
1	Bilim va malaka etishmasligi	53
2	Ichki qarshilik va o'zgarish qo'rquvi	45
3	Strategiyaning yo'qligi	42
4	Kadrlar etishmasligi	41
5	Investitsiyani qaytarmaslik qo'rquvi	40
6	Moliyaviy qiyinchiliklar	37

Taxlil va natijalarga asoslangan holda, raqamli transformatsiyaning kichik korxonalarda amal qilmaslik holatlari o'rganib chiqildi va natijada ushbu kamchiliklar ko'rsatildi. Demak, bu yerda eng past ko'rsatkich moliyaviy qiyinchiliklar - 37 foizni ko'rsatganligini aniqladik. Kichik korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshmasligi asosan moliyaviy mablag'larning etishmasligi ekan. Xar bir korxona moliyaviy jixatdan ta'minlangan bo'lsa, raqamli transformatsiya tizimini amalga oshirish qulay va oson bo'lar edi.⁷⁴

Xulosa va takliflar

Raqamli transformatsiya muvaffaqiyatli raqobatbardosh bo'lib qolishi va o'zgaruvchan raqamli muhitga moslashishi uchun yaxlit yondashuv va uzluksiz rivojlanishni talab qiladi. Xulosa qilganda, biznesni raqamlashtirishning natijasi sifatida quyidagilarni keltirsak bo'ladi:

– **Samaradorlikni oshirish:** samaradorlikni oshirish usullari ichida raqamlashtirish jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsiyalarni soddalashtirish va biznes samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu firmalarni samaradorligini oshirishga va vazifalarni bajarish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

– **Mijozlar tajribasini yaxshilash:** Raqamlashtirish mijozlar uchun xalqaro bozorni o'rganish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, uzluksiz onlayn tajriba va tezkor xizmat ko'rsatish orqali o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Bu mijozlarning qoniqishini oshirishga va mijozlarning sodiqligini mustahkamlashga yordam beradi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

– **Raqobatbardoshlikni oshirish:** Raqamlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan korxonalar tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezroq javob berish, yangi mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, jarayonni tezlashtirish, sifatni yaxshilash ISO-9000 standartidan foydalanish va xarajatlarni kamaytirish. Bu ularga bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi.

⁷⁴ Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar
<https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/>

– **Innovatsiyalar joriy qilish:** Raqamlashtirish biznesda innovatsiyalarni keltirib chiqaradi. Yangi texnologiyalar, ekotizimlar va platformalarning joriy etilishi yangi raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish, yangi bozorlar va daromad manbalarini ochish uchun imkoniyatlar yaratadi. Yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda moddiy va ma'naviy jihatdan firmalarni rag'batlantirishni ta'minlash lozim.

– **Tahlil va qarorlar qabul qilish:** Raqamlashtirish asosli qarorlar qabul qilish uchun tahlil qilinishi mumkin bo'lgan katta ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi.

– **Ma'lumotlar tahlilidan foydalanish:** kompaniyalarga tendentsiyalarni tushunishga, mijozlar xatti-harakatlarini bashorat qilishga va strategiyalarni optimallashtirishga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlarni tahlilidan foydalanish uchun keng ko'lamda kompaniyalar faoliyatini chop etish, internet tarmoqlaridan keng foydalanish, marketing tadqiqotlarini rivojlantirish va kompaniyalarda joriy qilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sobirjonov S.S., G'ulomova I. Raqamli transformatsiyava tadbirkorlik: kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnal, 2024 y. 11 son. 167 b. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 sonli farmoni

<https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf>

4. Muzrabov A.A. Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi. Ilm-fan xabarnomasi

<https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/69501>

5. Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. https://progressive-economy.ru/wpcontent/uploads/2023/08/elibrary_50365406_69099252.pdf

6. Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия <https://1economic.ru/lib/122173>

7. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.X. Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma), - T.: 2020. -377 b.

8. Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo‘nalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar» jurnali 3/2022

9. Shohruh Raxmat. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? <https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformatsiya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam>

10. Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar <https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/>

11. Raqamli Transformatsiya: Biznesingiz Uchun Asosiy Strategiyalar <https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar/>

BARQAROR INVESTITSİYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi, (PhD)

E-mail: m_nigora93@mail.ru

Orcid: 0000-0001-9607-2882

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror investitsiyalar tushunchasi va ularni baholashda qo‘llaniladigan ESG (Environmental, Social, Governance) me‘zonlari tizimli nazariy tahlil asosida o‘rganilgan va tadqiqot davomida BMT, OECD, IFC, va Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ESG standartlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: barqaror investitsiya, ESG me‘zonlari, ekologik omillar, ijtimoiy mas‘uliyat, korporativ boshqaruv, yashil iqtisodiyot.

Annotation. In this article, the concept of sustainable investments and the ESG (Environmental, Social, Governance) criteria used for their evaluation are studied through a systematic theoretical analysis, and the international ESG standards developed by the UN, OECD, IFC, and the European Commission are examined.

Keywords: sustainable investment, ESG criteria, environmental factors, social responsibility, corporate governance, green economy.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция устойчивых инвестиций и критерии ESG (Environmental, Social, Governance), используемые для их оценки, на основе системного теоретического анализа. Также проанализированы международные стандарты ESG, разработанные ООН, ОЭСР, МФК и Европейской комиссией.

Ключевые слова: устойчивые инвестиции, критерии ESG, экологические факторы, социальная ответственность, корпоративное управление, зелёная экономика.

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyoti nafaqat foyda, balki ijtimoiy mas‘uliyat va ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida shakllanmoqda hamda global iqtisodiyotda investitsiyalarning yo‘nalishi tobora “barqarorlik” tamoyiliga